

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon universiteti
rektori D.Sh Xodjayeva
30-iyun 2025 yil

UMUMIY PEDAGOGIKA
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta’lim

Ta’lim sohasi: 110000 – Ta’lim

Ta’lim yo‘nalishi: Barcha nomutaxassis ta’lim yo‘nalishlari uchun

Fan/ modul kodi UmPed208		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 3-4	ECTS-Kreditlar 8	
Fan modul/ turi Majburiy		Ta‘lim tili O‘zbek/ rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1	Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari	Mustaqil ta‘lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Umumiy pedagogika		120	120	240
2	1. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad-bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik fanning nazariy-tarixiy asoslari va o‘qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan talablar asosida ta‘lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik merosdan samarali foydalanish, real ta‘lim amaliyotida yuksak pedagogik madaniyat va texnikani nomoyon eta olishga o‘rgatish. Fanning vazifasi: - talabalarni milly va innovatsion pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga o‘rgatish; - o‘quv-tarbiya jarayonini samarali boshqarish, o‘quv-me‘yoriy hujjatlar bilan ishlash hamda ta‘lim olganlikni tashxis etish qonuniyat va tamoyillari bilan tanishtirish; - o‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ish yo‘nalishlari hamda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitish va rivojlantirish mazmunini o‘zlashtirish; - milliy va jahon pedagogik fikrlari taraqqiyoti bilan tanishtirish hamda pedagogik merosdan samarali foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish; - global doirada ta‘lim tizimi rivojlanishining holati, asosiy yo‘nalishlari va qonuniyatlarini tahlil etish, milliy va xududiy o‘ziga xosliklardagi umumiy ko‘rinishlarni ochib berish, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy pedagogik madaniyatni boyitish shakl va metodlarini aniqlashtirish; - talabalarni o‘qituvchi faoliyatida kasbiy mahoratni tutgan o‘rni, mazmun-mohiyatiga doir nazariy bilimlar hamda pedagogik faoliyatning turli				

ko‘rinishlarida o‘qituvchining muomala madaniyati, o‘quvchilar bilan aloqa o‘rnatish va muloqotga kirisha olish metodikasini to‘liq o‘zlashtirishga erishish.

Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari Gonkong Universitetining (The University of Hong Kong, HKU) Ta’lim fakulteti (Faculty of Education) tomonidan Master of Education dasturining ixtisoslashgan fan dasturi asosida t ayyorlanganligi:

Dunyoning yetakchi top 300 talik Gonkong Universitetlarida ushbu fanning o‘tilishida Muammoga asoslangan o‘qitish (Problem-Based Learning, PBL)

2. Talabaga yo‘naltirilgan o‘qitish (Student-Centered Learning)

3. OBASL (Outcomes-Based Approach to Student Learning)

4. TALIC (Teaching and Learning Innovation Centre)

5. Amaliyotga asoslangan o‘qitish (Experiential Learning)

HKU - Faculty of Education. metodlardan foydalanishi haqida yoritiladi

Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:

Nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi – talabalar nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu yondashuv orqali talabalar real muhitda o‘z ko‘nikmalarini sinab ko‘radilar va bu ularning kasbiy tayyorgarligini oshiradi. HKUda ta’lim natijalariga yo‘naltirilgan yondashuv qo‘llaniladi. Bu metod orqali o‘quv dasturlari va baholash tizimi aniq o‘rganish natijalariga erishishga qaratilgan bo‘lib, talabalar chuqur bilim olishga undaladi tl.hku.hk.

Top 300 Gonkong universitetida nazariy va amaliy bilimlar integratsiyasi orqali erishgan yutuqlari yoki ta’lim sifatini yaxshilashga qo‘shgan hissi, bizda bunday yondashuvni qo‘llash orqali ta’lim sifatini yangilash haqida

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – Ushbu fanni o‘qitayotgan Top 300 Gonkong universiteti standartlariga muvofiqligi 2023-yilda tashkil etilgan TALIC markazi HKUda pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirish, elektron o‘qitish, baholash va fikr-mulohaza berish bo‘yicha eng yaxshi amaliyotlarni targ‘ib qiladi. Markaz o‘qituvchilarga zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashda yordam beradi va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib boradi tl.hku.hk.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish – Talabalar fanni mustaqil tahlil qilishi va o‘z fikrlarini bayon qila olishida HKUda PBL yondashuvi orqali talabalar real hayotdagi muammolarni hal qilish orqali o‘rganadilar. Bu usul talabalarning tanqidiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘qituvchilar bu jarayonda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi va yordamchi rolini bajaradilar .

HKUda o'qitish jarayoni talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Bu yondashuvda talabalar o'z o'rganish jarayonini boshqaradilar, bu esa ularning mustaqil fikrlash va o'z-o'zini baholash qobiliyatlarini oshiradi .

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan.

Ilmiy pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari

Pedagogika fannining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Pedagogika fanni va uning asosiy kategoriyalari. Pedagogika fanlar tizimi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish.

2-mavzu. Pedagogikada shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoylashuvi

“Individ” va “shaxs” tushunchasi. Shaxs rivojlanishining ijtimoylashuvi bilan aloqadorligi. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o'rni. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.

3-mavzu. Didaktika-pedagogik ta'lim nazariyasi. Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida

Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari. Ta'lim nazariyasining asosiy kategoriyalari. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilishi. Pedagogik jarayon (ta'lim, tarbiya, rivojlanish) qonuniyatlari va tamoyillari.

4-mavzu. Ta'lim jarayonining mohiyati, qonuniyatlari va prinsiplari

Ta'lim jarayonining mohiyati. O'qish va o'qitish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari.

5-Mavzu Ta'limda zamonaviy nazariyalar

- O'rganish va baholashga umumiy nazariyalari.
- Behaviorizm va kognitiv axborotni qayta ishlash nazariyalari
- Konstruktivistik yondashuvlar
- Fenomenografiya va o'zgarish nazariyasi
- Baholashning maqsadga muvofiqligi
- Formativ baholash: o'rganishni rag'batlantirish

- **Summativ baholash: turli amaliyotlarga yo'naltirish**fe.hku.hk

6-mavzu. Ta'lim jarayonining mazmuni. STEAM ta'lim

Ta'lim mazmuni tushunchasi. Hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini belgilashga doir asosiy g'oyalar. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standarti. Yangi avlod darsliklarini yaratishga qo'llaniladigan talablar. STEAM: Science (fan), Technology (texnologiya), Engeneering (muhandislik), Art (san'at), Mathematics (matematika) o'qitish: hayot ta'limi (STEAM Learning education for life). STEM shaxs rivojining ijodiy aspekti. Reading – o'qish san'ati – STREAM. STEAM ta'lim dasturlari. STEAM texnologiyalarining ahamiyati. Gamefikatsiya: o'yin orqali o'rgatish (Gamefication: learning through play).

7-mavzu. Ta'lim jarayonining umumiy metodlari va vositalari

Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondoshuvlar. Ta'lim metodlarining mohiyati. Interfaol ta'lim metodlari. Eviristik metodlar. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari. Ta'lim vositalari va ularning funksiyalari. Interaktiv dasturiy vositalar.

8-mavzu. Ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari va turlari. Iqtidorli o'quvchilarni o'qitish

Ta'limni tashkil etish shakllari tushunchasi va turlari. Darsning turlari va tuzilishi. Nostandart darslar. Talimni tashkil etishning yordamchi shakllari.

O'qituvchining darsga tayyorlanishi. Iqtidorli o'quvchilarni o'qitish.

9-mavzu. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini diagnostikasi.

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funktsiyalari. Ta'lim olganlikni tashxis etish tamoyillari. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari.

10-mavzu. Tarbiya jarayonining mohiyati qonuniyatlari va tamoyillari.

Tarbiya tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.

11-mavzu. Tarbiya jarayonining mazmuni.

Shaxsni ilmiy dunyoqarashini shallantirish. Aqliy tarbiya, Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Ma'naviy-axloqiy tarbiya shakl va metodlari. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni. O'quvchilarda ongli intizomlilikni tarbiyalash. Jismoniy tarbiyaing maqsad va vazifalari. Jismoniy tarbiya vositalari. Estetik tarbiyaning maqsad, vazifalari va vositalari. Ekologik tarbiyaning maqsad, vazifalari.

Vatanparvarlik, iqtisodiy, huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Oilada bolalarni Vatanparvarlik, iqtisodiy, huquqiy tarbiyalash mazmuni.

O'quvchilarda ongli intizomlilikni tarbiyalash. Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari. Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari.

12-mavzu. Tarbiya jarayoni tashkil e'tish shakllari

Tarbiya jarayoni tashkil e'tish shaklli tushunchasi. Tarbiyaviy xarakterdagi tadbirlarni tashkil etish. Jamoa tushunchasi. O'quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. O'quvchilar jamoasini rivojlanish darajasi va bosqichlari. O'quvchilar jamoasisrivojining asosiy shart-sharotlari.

13-mavzu. Tarbiya jarayoning umumiy metod va vositalari.

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlari tasnifi. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish. Pedagogik rag'batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari. Tarbiya vositalari.

14-mavzu. Ta'lim muassasasi menejmenti.

Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha. Ta'lim muassasasini boshqarish. Ta'lim muassasasi Ustavi-rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat. Ta'lim muassasasining ichki boshqaruvi. Ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish. Ta'lim sifati monitoringi.

15-mavzu. Korreksion va Inklyuziv ta'lim.

Korreksion pedagogika pedagogika fanlarining tarmog'i sifatida. Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi. Inklyuziv ta'lim siyosatining huquqiy asoslari. Inklyuziv ta'lim tamoyillari. Ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus shart-sharoit yaratish. Inklyuziv jarayonni boshqarish. Inklyuziv ta'lim dasturlari.

2-modul. “Pedagogika tarixi”.

1-mavzu. Pedagogika tarixi fan sifatida. Ibtidoiy jamoada tarbiya. Eng qadimgi davrlardan VIII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

“Pedagogika tarixi” fanining maqsad va vazifalari. Pedagogika tarixi fani g‘oyalarning kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan o‘zaro aloqadorligi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta’lim-tarbiya jarayonida milliy meros, pedagogik qadriyatlardan samarali foydalanishning ijtimoiy ahamiyati. Ta’lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari. Eng qadimgi davrlardan XVII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Eng qadimgi yozma manbalarda ta’lim-tarbiya masalalarining yoritil. Islom dinining tarqalishi va uning ta’lim-tarbiyaga ta’siri.

Qur’oni Karim – axloqiy-falsafiy ta’limotlar manbai. Hadis ilmining paydo bo’lishi, hamda Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo’shgan hissasi.

2-mavzu. Sharq Uyg‘onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi. Sharq Uyg‘onish davrida ta’limiy-axloqiy fikrlar rivoji.

IX-XI asrlar - Sharq Uyg‘onish davri. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari. Abu Nasr Forobiy asarlaridagi pedagogik fikrlar. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy pedagogik qarashlari. Abu Ali ibn Sinoning tarbiya va ta’lim haqida. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida ta’lim-tarbiya masalalari. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilik” asari – pandnoma asar sifatida. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida didaktik qarashlar. Kaykovusning “Qobusnoma” asarining tarbiyaviy ahamiyati.

3-mavzu. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.

Ijtimoiy hayotning ta’lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta’siri. So‘fiylik ta’limotining ma’naviy hayotga ta’siri. Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma’rifat rivojiga qo’shgan hissasi. Mirzo Ulug‘bekning pedagogik g‘oyalari va ma’rifatparvarlik xizmatlari. Mirzo Ulug‘bek davrida maktab isloxotlari. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.

Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo’shgan hissasi. Navoiyning o‘qituvchi (mudarris) to‘g‘risidagi fikrlari. Abdurahmon Jomiyning

pedagogik qarashlari. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. “Axloqiy Jaloliy” asarining pedagogik fikrlar rivojida o‘rni.

4-mavzu. XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.

Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarida ta‘lim-tarbiya. Maktab va madrasalarda ta‘lim mazmuni. Qizlar maktabi va unda ta‘lim mazmuni. Munis Xorazmiyning “Savodi ta‘lim” asari – husnixatga doir dastlabki qo‘llanma sifatida. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Odob as-solihin” asari – yuksak ma‘naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba.

5-mavzu. XIX asrning 2-yarmi – XX asrning 1-choragida Turkiston o‘lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. Chor Rossiyasining ta‘lim siyosati. Turkistonda maktablar tizimi. V.P.Nalivkinning ta‘lim rivojida xizmatlari. Turkiston rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma‘rifatparvarlik xizmatlari.

6-mavzu. 1917-1991 yillarda O‘zbekistonda ta‘lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji.

Turkiston o‘lkasida ta‘lim siyosati. 1924-1945 yillarda ta‘lim va pedagogika fani. 1945-1991 yillarda O‘zbekistonda ta‘lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

7-mavzu. Mustaqil O‘zbekiston ta‘lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji.

Mustaqil O‘zbekiston da ta‘lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” – Respublikamizda ta‘lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi rivojining yangi bosqichida ta‘lim-tarbiya islohotlari: SH.M.Mirziyoyevning ta‘lim-tarbiyaga oid fikrlari.

8-mavzu. Eng qadimgi davrlardan XX asrgacha jahon pedagogika faning rivoji.

Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to‘g‘risida. Qadimgi Rimda

pedagogik g'oyalar rivoji. XII asrda Rossiyada pedagogik adabiyotlarning nashr etilishi. Rus pedagog-olimlarining pedagogik g'oyalari. G'arbiy Yevropa maktab va pedagogik fikrlar. Iogann Genrix Pestalotsining didaktika va boshlang'ish ta'lim metodikasiga qo'shgan hissasi. Adolf Distervegning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi. K.D.Ushinskiyning ta'lim va tarbiya sohasidagi xizmatlari.

9-mavzu. Global ta'lim tizimlari:

Dunyo bo'ylab ta'lim tizimlarining o'xshashliklari va farqlari. XX asr jahon ta'lim tizimidagi global tendentsiyalar. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi. Ta'lim modellari. Xalqaro loyihalar va ta'lim dasturlari.

3-modul. "Pedagogik mahorat".

10-mavzu. Pedagogik mahorat fan sifatida.

Pedagogik faoliyat va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo'yilgan talablar. "Pedagogik mahorat tushunchasi"

Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari. Pedagogik fikrlar taraqqiyotida o'qituvchi mahorati masalalari.

11-mavzu. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat

Qobiliyat va pedagogik qobiliyat haqida tushuncha. Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo'llari.

12-mavzu. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar.

Pedagogning muloqotning mazmuni. Pedagogik muloqot haqida tushuncha. Pedagogik muloqotning tuzilishi va metodlari. Pedagogik muloqot uslublari. Muloqot madaniyati. Pedagogik nizo va uning sabablari. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning ahamiyati va ularni yaxshilash yo'llari.

13-mavzu. Pedagogik takt va pedagogik etika

Takt va pedagogik takt haqida tushuncha. Takt va taktika. Pedagogik takti qo'llash shartlari. Pedagogik odob. Pedagogning muomala odobi.

14-mavzu. O'qituvchi faoliyatida pedagogik texnika

Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Mimika. Pantomimika. O'qituvchining pedagogik texnikasini shakllantirish yo'llari. Nutq haqida

tushuncha. Nutqning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni. Nutq madaniyati haqida tushuncha va uning asosiy elementlari. Nutq texnikasi: nafas olish, tovush, diktsiya, ritmika. Lektsik madaniyat. O'qituvchining nutq malakasini shakllantirish yo'llari.

15-mavzu. Pedagogik refleksiya

Pedagogik refleksiya haqida tushuncha. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning mohiyati. O'qituvchining kun tartibi va ish o'rni. Pedagogik mehnatini ilmiy tashkil etish tamoyillari. Pedagogik mehnatini ilmiy tashkil etishning asosiy yo'nalishlari. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash pedagogik mahoratning asosiy sharti sifatida. Pedagogik tajribani to'plash tizimi. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishda materiallar to'plash. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va ularni qo'llash.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Seminar mashg'ulotlarida talabalarda nazariy o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi hamda amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalari hosil qilinadi.

“Pedagogika nazariyasi” moduli bo'yicha seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.
2. Shaxs tarbiyaning obyekti va subyekti sifatida.
3. Ta'lim nazariyasi predmeti.
4. Ta'lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.
5. Ta'lim mazmuni.
6. Ta'lim metodlari va vositalari.
7. Dars – ta'limni tashkil etishning asosiy shakli.
8. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar.
9. Tarbiya jarayoni tuzulishi.
10. Shaxsda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
11. Vatanparvarlik va huquqiy tarbiya.
12. Tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari.
13. Tarbiya metod va vositalari.
14. Ta'lim muassasasi menejmenti.
15. Inklyuziv ta'lim texnologiyasi.

“Pedagogika tarixi” moduli bo'yicha seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim-tarbiya masalalari.
2. Sharq uyg'onish davrining pedagogik g'oyalari.
3. Temuriylar davrida pedagogik g'oyalarning rivoji .
4. Qo'qon, Xiva xonligi va Buxoro amirligida maorif taraqqiyoti
5. Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari.
6. Sobiq ittifoq davrida maorif taraqqiyoti
7. Yangi O'zbekistonda talim taraqqiyoti
8. G'arb mamlakatlarida (e.a. IV- XX asr) pedagogik fikrlar rivoji.
9. XX asr jahon ta'lim tizimidagi global tendentsiyalar.
10. Pedagogik mahorat fan sifatida

Amaliy mashg'ulot bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalarda pedagogik mahoratni namoèn etish ko'nikma va malakalari tarkib toptiriladi.

“Pedagogik mahorat” moduli bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo'llari.
2. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.
3. Takt va Pedagogik taktni qo'llash shartlari.
4. Pedagogik texnika.
5. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash pedagogik mahoratning asosiy sharti sifatida.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim mazmuni ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta'lim ko'proq ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'rganilmagan masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta'lim asosida o'qib-o'rganilgan masalalar fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o'z aksini topadi.

Mustaqil ta'limni tayèrlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar boyicha mavzularni konspektlashtirish;
- adabiètlar asosida referat èzish;
- kitob va maqollalarga annotatsiya èzish;
- Internet tarmog'idan azborotlar izlash va tahlil etish.

“Pedagogika nazariyasi” moduli bo'yicha tavsiya etiladigan

mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.
2. SHaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.
3. Didaktika ta'lim nazariyasi sifatida.
4. Ta'lim qonuniyatlari.
5. Ta'lim mazmuni.
6. Ta'lim metodlari va vositalari.
7. Ta'lim turlari va ta'limni tashkil etish shakllari. Dars – ta'limni tashkil etishning asosiy shakli.
8. Ta'lim olganlikni tashxis etish.
9. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni.
10. O'quvchilar jamoasi – yaxlit pedagogik jarayonning asosiy shakli.
11. Tarbiyaning umumiy metodlari.
12. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. O'quvchilarning aqliy tarbiyasi.
13. Fuqarolik tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy va estetik tarbiya hamda oila tarbiyasi asoslari.
14. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini boshqarish.
15. Korreksion pedagogika asoslari.

“Pedagogika tarixi” moduli bo'yicha tavsiya etiladigan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. “Avesto”da ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar.
2. Hadisshunos olimlar Imom ismoil Buxoriy va Imom Ismoil At Termiziylarning muxaddislik faoliyati.
3. Sharq uyg'onish davri allomalarining pedagogik qarashlari hamda ilm fan ravnaqidagi xizmatlari.
4. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari.
5. Xonliklar davrida ilm, fan va maktablar rivoji.
6. Jadid ma'rifatparvarlarining maktablar va maktab darsliklari yaratilishidagi xizmatlari.
7. G'arb mamlakatlarida pedagogik qarashlarning shakllanishi.
8. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi va zamonaviy ta'lim nazariyalari.
9. Pedagogik mahoratning maqsad va vazifalari.
10. Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari.
11. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyatning tutgan o'rni.
12. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.
13. O'qituvchi faoliyatida pedagogik etika.

	14. O'qituvchi faoliyatida pedagogik texnika. 15. O'qituvchi faoliyatida pedagogik refleksiya.
3	V. Fanni o'qitishning natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar). Fanni o'zlashirish natijasida talaba quyidagi kompetentsiyalarga ega bo'ladi: -motivatsion-kognitiv – bilish faoliyatiga yo'nalganlik, o'quv-bilish faoliyatining anglanganligi, ijodiylik, nastandart vaziyatlardagi xulq-atvor, o'quv vazifalarini hal etishdagi mustaqillik, pedagoglik kasbini egallashga qiziqish va intilishlarga ega bo'lish; -informatsion – axborotlar ustida ishlash, axborot xurujlaridan himoyalash, axborot iste'moli madaniyatini egallash; -kommunikativ – lingvistik savodxonlik, adabiy va ilmiy uslub qoidalarini o'zlashtirish, verbal va noverbal nutq ko'nikmalarini o'zlashtirish, o'zaro fikr almashish, voqelikni tahlil etishda erkin muloqotga kirishish, pedagogik voqelikka o'zining xolisona munosabatini bildirish; -g'oyaviy-mafkuraviy – milliy g'oyaning mazmun-mohiyatidan xabardorlik, dunëning mafkuraviy manzarasini anglash, g'oyaviy immunitetga egalik, mafkuraviy tahdidlardan himoyalash, milliy g'oyaning shaxsiy va ijtimoiy mohiyatini anglash, milliy g'oyaning pedagogik faoliyatdagi o'rnini aniqlashtirish; -fuqarolikka doir – siësiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy sohalarda amalga oshirilaëtgan islohotlarning mohiyatini anglash, milliy-madaniy meros, xalqning o'tmishi, buguni va istiqbolini uyg'unlikda tahlil etish, ijtimoiy-siësiy haëtda faol ishtirok etish, mahalla haëti va o'z-o'zini boshqarish institutlari, ijtimoiy harakatlar tomonidan o'tkazilaëtgan loyihalarda faollik ko'rsatish; -ma'naviy-axloqiy – jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'ërlarini o'zlashtirish va amal qilish, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirish va pedagogik faoliyatning bosh mezoniga aylantirish, ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish, ma'naviy targ'ibot va tashviqot ishlarini tashkil etishga tayërgarlik; -akmeologik – o'ziga va uni o'rab turgan atrof-muhitga ishonch, o'z xohish-istaklari va ehtiëjlarini to'liq anglash, bugungi kundagi mavjud imkoniyatlarni va kelgusidagi ijodiy rivojlanish istiqbollari aniqlash, refleksiya, identifikatsiya, interiorizatsiyaga, o'zining qarashlari, e'tiqodi va ustanovkalarini o'zgartirishga qobiliyatlilik; -aksiologik – pedagogik voqelikni aksiologik baholash, pedagogik hodisalarni qadriyat sifatida anglash, pedagogik jaraëndan zavqlanish, lazzatlanish, mas'uliyat hissini sezish, o'z pedagogik pozitsiyasini anglash va ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayërlilik.

4	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: Ma'ruzalar; Interfaol keys-stadilar; Seminarlar, mantiqiy fikrlash, munozaralar; Guruhlarda ishlash; Taqdimotlarni taqdim qilish; Individual loyihalar.
5	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: -ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda muntazam qatnashish: munozaralar va o'quv konferentsiyasida ishtirok etish; tayanch konspektlar tuzish; - joriy va oraliq nazorat topshiriqlarini bajarish; -mustaqil ish topshiriqlarini bajarish; -yakuniy nazorat topshirish.
6	VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar Asosiy adabiyotlar: 1. Abdullayeva B.S. "Obshashaya pedagogika". Sano Standart. T. 2017. 2. Abdullayeva B.S, Xoliqov A.A, Farsaxonova D.R, Muhammadiyeva S.V, Sheranova M.B, "Umumiy pedagogika" (Pedagogika tarixi) T: Innovatsiya ziyo 2022y. 3. Abdullayeva B.S, Xoliqov A.A, Farsaxonova D.R, Muhammadiyeva S.V, Sheranova M.B, "Umumiy pedagogika" (Pedagogika nazariya) T: Innovatsiya ziyo 2021y. 4. Abdullayeva B.S, Xoliqov A.A, Sodiqov H.M, Primov Sh.Q, Zarmasov Sh.R "Umumiy pedagogika" (Pedagogika mahorat) T: Innovatsiya ziyo 2021y 5. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. 6. Azizxodjayeva. N.N. Pedagogicheskie pedtexnologii i pedmasterstvo "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2005. 7. Podlasy I.P. Pedagogika. : Uchebnik dlya stud. ped. vuzov: V 1. kn. – M.: Gumanit. izd. tsentr VLADOS, 2002. 8. Podlasy I.P. Pedagogika. : Uchebnik dlya stud. ped. vuzov: V 2. kn. – M.: Gumanit. izd. tsentr VLADOS, 2002 9. Xalikov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent, Iqtisod moliya, 2011. 10. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.. 11. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996. 12. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. 13. Yo'ldoshev O', A.Ziyayev, M.Yusupov vb "Umumiy pedagogika". – T.: «Fan va texnologiya», 2017. 14. Yo'ldashev O'tkir Jumaqo'ziyevich, Abdurashidov Adham Abdulhamidovich "Umumiy pedagogika" darslik Farg'ona nashriyoti, 2021-yil

	Qo'shimcha adabiyotlar: 1. Derkach A.A. Akmeologiya. – M.: RAGS, 2004. 2. Ziyayev.A. Umumiy pedagogika. Farg'ona Nashryoti.2020. 3.Inoyatov. Pedagogika:1000 ta savolga 1000 ta javob.TDPU.2012. 4. Pedagogicheskiy entsiklopedicheskiy slovar. – M.: Bol'shaya Rossiyskaya entsiklopediya, 2002. 5. O.Hasanboyeva. J.Hasanboyev.H.Homidov.Pedagogika tarixi.2004. 6.Xushnazarova. M. Yan Amos Komenskiyning “Buyuk didaktika” asarini pedagogika darslarida o'rganishga bo'lgan zamonaviy yondoshuvlar.Navruz.T.2014. 7. Xushnazarova.M. Umumiy pedagogika. Farg'ona Nashryoti.2021. 8. Qori niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. “ Pedagogik atamalar lug'ati”. Fan. 2008. 9.Umarova.M.X. “ Teoriya i istoriya pedagogiki”. Ghulpan.Toshkent-2018. Axborot manbalari 1. www. tdpu. uz 2. www. pedagog. uz 3. www. Ziyonet. uz 4. www. edu. uz 5. tdpu-INTRANET. Ped 6  MEDD8819 – Linking Curriculum to Learning and Pedagogy – Syllabus (PDF) 7 BBED1102 Course Outline 2022-2023_Vincent_2023 01 10_rev2.pdf
7	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidani ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8	Fan moduli uchun ma'sullar: U. Yuldoshev - “Pedagogika” kafedrası mudiri, dotsent. Yo‘ldasheva Malohat Erkinovna - “Pedagogika” kafedrası katta o‘qituvchisi PhD Raximova Feruza Najmiddinovna-“Pedagogika” kafedrası katta o‘qituvchisi PhD dots
9	Taqrizchilar: G‘aniyeva Muborak Adilovna - Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.